

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19186524>

Farg'ona davlat universiteti psixologiya kafedrasida o'qituvchisi
Qurbonova Saida Miralimjanovna

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning psixologik xususiyatlarini amaliy tahlil qilish va bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish masalasi hamda ta'lim jarayonini takomillashtiruvchi ijtimoiy-psixologik omillari atroflicha yoritilgan. Shuningdek, Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalaridagi pedagogik jarayonning samaradorligi eng avvalo ustoz-shogird munosabatlaridagi «teskari aloqaning» mavjudligiga bog'liq bo'lib, bu tizimda shogird – talabalarning o'z ustozlari to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlarida gumanistik, altruistik, e'tiqodiy hamda irodaviy sifatlar ustuvor ekanligini bilishlari va amalda bunga taqlid qilishlaridan yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: *kommunikativ, bilim, ko'nikma, kompetensiya, pedagogik faoliyat, mutaxassislik, didaktik, shaxs, intuitsiya, qobiyat, talab, samarali muloqot.*

O'zbekiston globallashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni yanada kuchaytirish va amalga oshirishayotgan ishlar salmog'ini yanada kengaytirmoqda. Mustaqilligimizni asrab-avaylash va mustahkamlashni biz eng ulug' maqsad deb bilamiz. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoev aytganlaridek: "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat".

Yuqorida bayon qilinganlar bilan bir qatorda ta'lim sifatini takomillashtirishda ta'lim jarayonida kasbiy pedagogik yo'nalirilganlik prinsipiga amal qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta'lim muassasasi ta'lim jarayonida o'qish-o'rgatishni kasbiy-pedagogik yo'naltirilganlik asosida tashkil etish unda o'qitiladigan har bir fan mazmuni bo'lajak mutaxassisning kelgusi pedagogik faoliyatiga tayyorlashga qaratilishini talab etadi. Boshqacha aytganda, umumiy o'rta ta'lim maktablari, litsey, kasb-hunar kollejlari uchun pedagogik kadrlar tayyorlayotgan oliy ta'lim muassasasida o'qitiladigan umumkasbiy, mutaxassislik fanlari, va ular bilan bog'liq auditoriyadan tashqari mashg'ulot (ilmiy to'garak, mavzuli kecha, ekskursiya, olimpiada va b.q.)larning har birini o'rganish kafedra professor-o'qituvchilaridan umumta'lim fanlarining dasturlari mavzulari mazmuniga mos ravishda ta'lim jarayonining didaktik vazifalari va ta'lim texnologiyalarini namoyon qilishni va ular bilan bo'lajak o'qituvchilarni muntazam ravishda qurollantirib borishni taqozo etadi.

Bugungi kunda malaka ta'lim mazmuni uchun normativ talab sifatida belgilanadi – fanlar va jarayonlar bilan bog'liq va ular bilan samarali ishlash uchun zarur bo'lgan o'zaro bog'liq kompetensiyalar (biim, ko'nikma, kompetensiya, faoliyat usullari) shaxsning malakasi ma'lum bir faoliyat turining muvaffaqiyatini belgilaydi. "Minimal" asosiy ta'lim dasturlarining mazmuni. majburiy minimali – "talablar" malaka va malaka salohiyatiga qarab bitiruvshilarni tayyorlash darajasiga qo'yiladigan talablardir. Shuningdek, u ijtimoiy-iqtisodiy modernizatsiya vositasi bo'lib

Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish

xizmat qiladigan malakali yondashuvning ijtimoiy-madaniy ahamiyatini ko'rsatadi. Innovatsion xarakterdagi ilg'or rivojlanishni yoki malakali yondashuvni hisobga olgan holda ta'lim mazmuniga qo'yiladigan meyoriy talablar sifatida faqat mehnat bozorida sodir bo'lgan hodisalarni aniqlash va ularga ta'limni moslashtirish ushuni mo'ljallangan. Pedagog faoliyatida psixologiyani o'rni beqiyosdir. Chunki har bir pedagog dars o'tish jarayonida o'quvchilarining individual psixologik xususiyatlarini bilishi, yangi mavzuni tushuntirayotganda ham umumpsixologik qonuniyatlarni hisobga olgan holda darsni tashkil etishi ta'limning sifatiga ijobiy ta'sir etadi. Hozirgi jamiyatimizda o'qituvchining mustaqil ravishda bilimlarni egallab, o'z malakasini oshirib borishi bir tomondan o'qituvchilik faoliyatining borgan sari naqadar muvaffaqiyatli borayotganligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan muhim vazifa ekanligidan dalolat beradi. Chunki bu kechiktirib bo'lmay jarayon shaxsni intellektual qashshoqlikdan qutqarib qoladi. Psixologik nuqtayi nazardan o'qituvchi doimiy ravishda o'z bilimlarini oshirish bilan shug'ullanishi zarurdir. Chunki o'qituvchilik mehnatining asosiy xususiyati ham shudir. Pedagog har doim odamlar orasida bo'larkan, u birinchidan, odamlarni ko'pdan beri qiziqtirib kelayotgan haqiqatni o'z qarashlari bo'yicha to'g'ri tushuntirib berishi lozim.

Xulosa qilib aytadigan bulsak, bo'lajak o'qituvchining mukammal pedagog darajasiga ko'tarilishi ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshadi va o'qituvchi shaxsining ba'zi bir xususiyatlari: pedagogik kuzatuvchanlik, xotiraning hozir javobligi, mustaqil va ijodiy fikr yuritish uslubi, nutqining aniqligi, to'g'riligi va ifodaliligi, diqqatning yuksak darajada rivojlangan xususiyatlari, maqsadga intiluvchanlik, o'z maqsadi samaradorligini oldindan ko'ra bilish va boshqalar shakllanadi.

Hozirgi zamon ta'lim-tarbiya kontsepsiyasi yuksak umuminsoniy qadriyatlar asosida taraqqiy topib bormoqda, bu Kadrlar Tayyorlash Milliy Dasturi, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunlarda ko'rsatib berilgan. Ushbu qonunlar milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri o'qitish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodni shakllantirishga yo'naltirilgan.

Milliy dasturning maqsadi ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlat darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ta'lim to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. – T.: O'zbekiston, 2020
1. Каримова В.М. Таъриботнинг психологик услублари.-Т.: Маънавият, 2000 - 16 б.
2. Каримова В.М, Акрамова Ф.А. Психология. Маърузалар матни. Тошкент. 2000. 170-б.
3. Ибрагимов Х.И. Педагогик психология. Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти. 2007. 410-б
4. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002. 1-2-kitob.